

## SHARQ MUTAFAKKIRLARINING YOSH AVLODNI TARBIYALASHGA OID QARASHLARI

Mahmudova Dilafruz Sultannazirovna

*Urganch shahar 1-son kasb-hunar  
maktabi ona - tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va jadid adabiyoti vakili Abdulla Avloniylarning yosh avlodni tarbiyalashga oid qarashlari, insонning ma'naviy hayotidagi tarbiya berish usullari, axloqiy kamolot, axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari bayon etilgan.

**Kalit so`zlar:** xalqona tarbiya, ma'naviy axloq, aqliy tarbiya, ritorik harakatlar, onalar maktabi, nutqni rivojlantirish, fikrlashni rivojlantirish, ideal jamiyat, xulq, insон.

Sharq uyg'onish davrida mutafakkirlarning pedagogik qarashlari axloqiy va tarbiyaviy g'oyalari asosiy masala bo'lgan. O'sha davrlarning buyuk mutafakkirlari Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Jaloliddin Dovoniy, Alisher Navoiylar jahon fani, madaniyati, maorifiga beqiyos hissa qo'shdilar. O'tgan davrlarda mehnatkashlaring o'z munosabatlarini uning yoshlarga tarbiyaviy ta'sirini yanada kuchaytirish maqsadida yo'lga qo'yish borasidagi tajribalarini nafaqat xalq pedagogikasining qator shakllari, usullarini qayta tiklash uchun, balki shaxsni shakllantirishni boshqaruvchi obyektiv umumiyligi ijtimoiy qonunlar, xalq turmush tarzini tushunish uchun ham o'rganish lozim.



160 dan ortiq asar yozib, o'rta asr ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan butun umrini fanga bag'ishlagan Sharqning qomusiy mutafakkiri Abu Nasr Farobi (873–950) insонни har tomonlama takomillashtirish, ularni umumiyligi baxt-saodatga yetaklash yo'llari va usullarini o'zining ijtimoiy-siyosiy ta'limoti markaziga qo'yadi, Aynan shunday maqsadlar Farobiyning shaxsni tarbiyalash va ta'lim berish, uni takomillashtirish hamda uning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi faol roliga nisbatan dunyoqarashlarining bosh mazmunini tashkil etadi. Uning fikriga ko'ra, ta'lim va tarbiya oilada, o'qituvchi yordamida maktabda va yaxshilikka asoslangan jamiyatda uning rahbari yordamida amalga oshirilishi mumkin. Farobi fikriga ko'ra ta'lim – bu


nafaqat aqliy rivojlanish, balki umuman ma'naviy rivojlanish, shu jumladan axloqan rivojlanish poydevoridir. Ta'lism va tarbiya o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, ular shaxsni ma'nani kamolotga yetkazuvchi turli yo'llar hisoblanadi. Forobiy ijtimoiy tarbiyani tartibga solish, uni boshqarish masalalariga alohida e'tibor bergen. U mehnat faoliyati tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi, degan xulosaga keladi. Forobiy inson baxt – saodatga erishuvi uchun ularni baxtli – saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo'lishi kerak deydi. U fozil shaharni boshqaradigan hokim tabiatdan:

1 – sog'-salomat bo'lib, o'z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmasligi; 2 – tabiatni nozik, farosatli; 3 – xotirasi mustahkam, 4 – zehni o'tkir, 5 – o'z fikrini tushuntira oladigan notiq, 6 – bilim-ma'rifikatga havasli, 7 – taom yeishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladiga bo'lishi (qimor yoki boshqa o'yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi, 8 - haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'oni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan, 9 – o'z qadrini biluvchi va oriyatli bo'lishi, 10 – mol dunyo ketidan quvmaydigan, 11 – adolatparvar, 12 – qatiyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi muhimligini qayd etadi. Farobiy bu fazilatlarni har bir yetuk insonda ko'rishni istaydi.

Ibn Sino (980–1037) pedagogika masalalariga ijodiy yondashgan. U bola tabiatini nafaqat tabib, balki yetuk pedagog sifatida ham chuqur bilishini namoyon qilgan. Olimning bolalarga ta'lism va tarbiya berish haqidagi ko'plab fikrlari o'zining chuqurligi, insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilganligi va tarbiyadek murakkab muammoni to'g'ri talqin qilishi bilan kishini lol qoldiradi. Ibn Sino taklif qilgan tarbiya va ta'lism mazmuni aqliy tarbiya, jismoniy sog'lomlashtirish, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya va hunar o'rgatishni o'z ichiga oladi. Ibn Sino bola tarbiyasining butun mashaqqati va murakkabliklarini juda chuqur tushungan. «Tib qonunlari» ning «Tarbiya haqida» nomli bo'limida qo'yilgan masalalar aniq hal etiladi, bola xarakterini tarbiyalash haqida qimmatli fikrlar bildiriladi. Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik ijodida oilaviy tarbiyaga alohida e'tibor qaratiladi va bunda bosh rol oila boshlig'i – ya'ni otaga beriladi. Ibn Sino nima uchun bolani onasi emas, balki tarbiyachi tarbiyalashi lozimligini tushuntirib beradi. Uning fikrlariga qaraganda, bolaning onasi o'z farzandi tarbiyasida ko'proq hissiyotlarga beriladi va bola tarbiyasida to'g'ri yo'lni tanlay olmaydi. Ibn Sino tarbiyachi oldiga aniq vazifalarni qo'yadi: u o'z shogirdini qachon jazolashi yoki rag'batlantirishi mumkinligini yaxshi bilmog'i lozim. Ibn Sino bola tarbiyasining barcha murakkabliklari va qiyinchiliklarini tushungan. U jismoniy jazoning me'yordan ortib ketishiga qarshi chiqqan. Uning fikriga ko'ra, risoladagidek tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bolalarga insoniy munosabatda bo'lish darkor. Tarbiyachining o'zi bola shaxsini hurmat qilishi, uni sevishi va bola bilan yaxshi munosabatda bo'lishi lozim. Ibn Sino tarbiya omilining ahamiyatini chuqur anglagan va ijobiy omil ahamiyatini juda qadrlagan, uni tarbiyaning asosiy vositalaridan biri deb bilgan.



Alisher Navoiy asarlari besh yuz yildan buyon ko'plab avlodlarni hayajonga solib keladi. Insonparvarlik, muhabbat g'oyalari, insonning oliy maqsadlarini kuylash Navoiy merosida asosiy o'rinni tutadi. Navoiyning pedagogik qarashlari o'ta insoniyligi bilan ajralib turadi. U bola shaxsini shakllantirish va tarbiyalash masalalariga juda katta ahamiyat bergen, Navoiy farzandni oilaga quvonch va baxt keltiruvchi shamchiroq, deb bilgan. Navoiy bolaga uning yoshiga qarab eng kichik yoshdan to'g'ri tarbiya berish zarur, fanlarni o'rganishni iloji boricha barvaqt boshlash lozim, deya ta'kidlagan.



Abdulla Avloniy (1878–1934) – jamoat va siyosat arbobi, shoir hamda pedagog bo'lib, Abdulla Avloniyning yosh avlodga tarbiya berish haqidagi qarashlari. Abdulla 1908-yilda kambag'allarning farzandlari uchun mакtab ochadi. Uning o'zi shu maktabda yangi ta'limgusullarini qo'llagan holda ona tilidan dars beradi. Avloniyning xalq ta'limi sohasidagi faoliyati uning yozuvchi va shoir, iqtidorli yoshlar teatrining tarbiyachisi hamda sahnalashtiruvchi rejissyori sifatidagi faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. 1916-yilda Rossiyada va Turkistonda milliy ozodlik harakatlari avj ola boshlaydi. A. Avloniy bunda harakat rahbarlaridan biri sifatida faol ishtirok etadi. 1917-yilning yozidan boshlab Avloniy «Turon» gazetasini chiqara boshlaydi. Ushbu gazeta sahifalarida Avloniyning xalq maktabini tashkil etish, o'qituvchi kadrlarni tayyorlash va darsliklar chop etish masalalariga bag'ishlangan ko'plab maqolalari bosiladi. Ayniqsa, u o'zbek qizlariga ta'limgazaliy tarbiya berish va ular uchun maxsus maktablar tashkil etish muammosiga alohida e'tibor beradi. Ushbu yillarda Avloniy

«Adabiyot» (I-IV kitoblar), «Turkiy guliston», «Maktab gulistoni» kabi kitoblarini yozadi va chop etadi. A.Avloniy dunyoqarashining shakllanishida ilg'or rus adabiyoti va madaniyati muhim rol o'ynaydi. U A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, M.Gorkiyning ijodiy meroslariga katta hurmat bilan munosabatda bo'lgan va K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini yuqori baholagan. Agar tarbiya qiluvchi muallim olim bo'lib, amalsiz bo'lsa, bu shogirdlar axloqiga yomon ta'sir ko'rsatadi.

Sharq mutafakkirlari yaratgan shoh asarlardan nafaqat O'rta Osiyo, balki Yevropa mamlakatlari ham foydalanib kelmoqda. Ularning buyuk asarlari yillar davomida o'zbek adabiyoti xazinasini boyitib, o'quvchi -yoshlarni komil inson etib tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.: "Hilol-nashr". 2013 y.
2. Munavvarov A.K. "Oila pedagogikasi" Toshkent: 1994.
3. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 y.
4. Z.B.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta'lif jurnali. 2017 yil, 5-son.
5. Abu Nasr Forobi "Fozil odamlar shahri", Yangi asr avlodi, T-2018.